

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Turdiyev Azamat

Termiz davlat pedagogika

instituti Maktabgacha ta'limda tarbiyani tashkil

etish kafedrasi o'qituvchisi.

Hozirgi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan davlatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, unda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish va ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Maktabgacha ta'lim-ta'lim tizimining eng asosiy bosh bo'g'ini bo'lganligi sababli bola shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Maktabgacha ta'limda, ta'lim jarayonida bolalarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, mashg'ulotlarda faol qatnashishga, yangi bilimlarni egallashga undaydi. Maktabgacha ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, jumladan, axborot texnologiyalari bilim olish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra tarbiyalanuvchilarning ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday mashg'ulotlar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. Tarbiyalanuvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar bolalarning nazariy, ijodiy tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. Tarbiyalanuvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning har tomonlama o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining maktabgacha ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad-aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlari yangi turlarining paydo bo'lishidir. Maktabgacha ta'lim guruhlarida, tarbiyalanuvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, idrok va tasavvur qilish faolligini saqlab qolish va bolani bilim olish maqsadida ta'lim jarayoniga kirib borishi uchun yetarli va kerakli sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini shakllantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarining o'z o'rnini bor.

Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonini individuallashtirish va differensiyalash imkonini yaratadi. Internet texnologiyalarining kirib kelishi, bolalarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun umuman yangi imkoniyatlar beradi, ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi. Maktabgacha ta'limda mashg'ulotlarni multimedia texnologiyalari asosida o'qitish katta samara beradi. Buning uchun mashg'ulotlarning har bir mavzusi bo'yicha - ilk qadam dasturi asosida mashg'ulot ishlanmalari yaratilishi lozim. Ana shu ishlanma asosida barcha mavzularga oid axborot texnologiyalari vositalari yordamida bayon etilishi lozim bo'lgan nazariy va amaliy materiallarning elektron taqdimot shakli tayyorlanadi. Mashg'ulot ishlanmalariga turli animatsion, taqdimot slaydlar tayyorlanib, videoproyektorlar orqali tarbiyalanuvchilarga tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Multimediali taqdimot nafaqat matnli va ko'rgazmali, balki ovozi, animatsiyali bo'lishi bolalar tomonidan mavzuni mukammal o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyalari asosida kompyuterli ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlardan ham foydalanish mumkin.

Shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, kompyuterli ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlar didaktikaning barcha qonun va qoidalariga rioya qilgan holda o'tkaziladi. O'yinlarni o'tkazish shakllari mashg'ulotlar, o'yin-mashq va dam olish o'yin shakllaridan iborat. Multimediali ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlar didaktik o'yinlar tarkibiga kiradi va MTTlardagi ta'lim-tarbiya jarayonini bevosita amalga oshirishga qaratilgandir.

Bugungi kunda kompyuterli o'yinlarni bir necha turga ajratishimiz mumkin. Masalan:

kompyuterli rivojlantiruvchi o'yinlar, kompyuterli ta'limiy o'yinlar, boshqotirma o'yinlari, dam olish o'yinlari, stol ustida o'ynaladigan o'yinlar, konstruktiv o'yinlar, muloqotni anglash o'yinlari va boshqalar. Bilamizki, didaktik o'yinlarning asosiy pedagogik jihati shuki, bu uning ta'limiyligidadir. Bog'cha tarbiyalanuvchilari o'yin davomida bir vaqtning o'zida ham o'yinda ishtirok etadi, ham ma'lum bir darajada ta'lim oladi. Ba'zi o'yinlarda esa bolalar bilimlarini

mashqlarda namoyish qiladi hamda o'z bilimlarini chuqurlashtiradilar. Misol sifatida elementar matematikani o'rganish mashg'ulotlarida shakllarni ustma-ust qo'yish o'yinida bola shakllarni ustma-ust qo'yish orqali qanday shakl hosil bo'lganini topsa, ikkinchi vazifada tarbiyachining topshirig'i bo'yicha-shakllar sonini sanab berishi kerak bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda va ularga bilim berishda axborot texnologiyalari va ular orqali o'ynaladigan

o'yinlar bola rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Bu o'yinlar bolalarni qiziqarli usul bilan ta'lim jarayoniga jalb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MULTIMEDIA ORQALI TA'LIMNI TASHKIL QILISH TA G'ayratovich - Journal of new century innovations, 2022

2. BOLALARGA CHET TILLARINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TA Gayratovich - Новости образования: исследование в XXI веке, 2022

3. MAKTABGACHA TA'LIMDA MULTIMEDIADAN FOYDALANISH TA G'ayratovich - IJODKOR O'QITUVCHI, 2022

4. КИЧИК МАКТАБ ЁШДАГИ БОЛАЛАР БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

ГД Дурманова, АҒ Турдиев, МП Аллахонова - Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2021